

STUDENT PROBLEMS IN THE FORMATION OF AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS

Tagayev GanisherXasanovich
SamDChTI is an Independent Researcher

RESUME

This article analyzes some aspects of the formation of aesthetic culture of students, the essence of aesthetic culture and its national identity, the problems of aesthetic culture of students, equipping students with aesthetic knowledge in the system of continuing education, methods and means of developing aesthetic feelings in young people.

Keywords: Aesthetic culture, aesthetic worldview, aesthetic education, structure of aesthetic culture, aesthetic knowledge in the system of continuing education, criteria of aesthetic culture.

Ta'lim tizimidagi zamonaviy islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda bozor iqtisodiyoti chuqur ildiz otib borayotgan davrda yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq bir qator yangi vazifalarni yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hyech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb, yoshlar siyosiy faolligini oshirishga da'vat etdilar.

Asrlar davomida ajdodlardan-avlodlarga meros bo'lib qolayotgan an'ana va udum, qadriyat va marosimlarning har birida tarbiyaning o'ziga xos ko'rinishi mavjud. Yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalashda shubhasiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish zarur.

Har bir millatning estetik madaniyati murakkab va ko'p qatlamli shakllangan jabxadir. Estetik madaniyatning mohiyati va uning milliy o'ziga xosligini chuqur anglash muhimdir. Estetik madaniyat muammolarini tahlil qilish uchun o'zligini anglatadigan etnomadaniy boyliklarni falsafiy tahliletish, milliy bir butunlikni tarannum etuvchi sifatida ko'rib chiqmaslikmilliy estetik madaniyat haqida yetarlicha chuqur va aniq tasavvur bera olmaydi. Faqatgina estetik madaniyat strukturasini yanada aniqroq va asosli ravishda yoritib berish sharti bilan uning aniq tarkibiy qismlarining bunday rivojlanishi jarayonida uning rivojlanishi, evolyusiyasini aniq aniqlangan dialektik aloqadan iborat motivasion va obyektiv tahlilga ishonish mumkin. An'anaviy madaniyatlar uchun kengaytirilgan emas, balki oddiy dekorativ shakllarni ko'paytirish, tantanalar uchun bezak, hunarmandchilik, bezak buyumlari, turar-joy binolari milliy estetik madaniyatdan dalolat beradi.

Shuning uchun estetik olim M. Abdullayev boshqacha yondashuvni taklif qiladi. "U faoliyat orqali madaniyatni aniqlashga estetik yondashuvni, ijtimoiy yo'naltirilgan shakllarda insonning ijtimoiy subyekt sifatida ehtiyojlari va qobiliyatlarini amalga oshirish deb tushunadi, obyektiv natijasi - bu ijtimoiy subyektning o'zi va ushbu shakllarini oddiy yoki kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish bo'lib, milliy madaniyatni aniq tahlil qilish uchun yanada oqilona va samarali bo'ladi. unda belgilangan tadbirlar amalga oshiriladi".

Estetik madaniyatning asosiy qismi badiiy madaniyat yoki san'atdir. Badiiy faoliyat natijasida jamiyatda ustun bo'lgan Estetik va badiiy qadriyatlar badiiy asarda obyektivlashtiriladi. Estetik madaniyatning tarkibi badiiy va ijodiy faoliyatning har xil turlarini o'z ichiga oladi ya'ni bular xalq yozma va og'zaki ijodiyoti, milliy antikvarlar, turli xil dizayn faoliyati, shu jumladan obyektiv fazoviy muhitni tashkil etishdir. Xalq etnografiyasi yoki etnoestetikasini qamrab olgan "badiiy adabiyot, rang tasvir san'ati, musiqa va boshqalarda insonning nafaqat estetik, shu bilan birga gnoseologik, tashkilotchilik ehtiyojlari va qobiliyatlari ham ishtirok etadi. Xalq mulkiga aylangan ijtimoiy-badiiy

hodisa sifatidagi estetik madaniyat negizini badiiy madaniyat tashkil etadi. Binobarin, badiiy madaniyat bu – estetik qadriyatlarining oliy shaklini gavdalantiradigan badiiy qadriyatlar sohasidir”. Inson asosan, ikki yo’l bilan ta’lim olishi va tarbiyalanishi mumkin: birovning bevosita ta’siri, ya’ni o’rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o’g’itlari va asarlarini o’qish orqali; inson o’zining fikrlashi, odamlar hatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi – tafakkuri vositasida.

Jamiyat ijtimoiy hayotini bir butun organizm sifatida olib qaralganda uni estetik madaniyat va tafakkursiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Estetik madaniyat taraqqiyoti va sog’lom estetik immunitetni hosil qilish uchun uning mezonlari to’g’ri tanlanishi shart. “Chunki, yoshlar tabiat va jamiyatni nafaqat aqliy imkoniyatlari doirasida bilib, anglab boradi, balki, shu bilan bir qatorda, estetik tafakkuri orqali ham his qiladi va idrok etadi. Shu bilan birga bunday ijtimoiy-psixologik jarayon bevosita erkin, ozod, hyech qanday tazyiqsiz, ko’rsatmasiz, buyruqsiz bo’lishni ham taqozo qiladi”. O’quvchi yoshlarda estetik dunyoqarash orqali ularga etnografik dunyoqarashni ham shakllantirish bu jamiyatning estetik madaniyatini yuksalishini bildiradi. Bu uch birlik estetik dunyoqarash, etnografik dunyoqarash va estetik madaniyatni bir vaqtda shaxs ongida aks etishi bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

- o’quvchi yoshlarni uzuluksiz ta’lim tizimida estetik bilimlar bilan qurollantirish, turmush estetikasi asoslari bilan tanishtirish, badiiy dunyoqarashni rivojlantirish zarur;
- xalqning boy estetik tajribasini anglash, tizimlashtirish va tahlil qilish, go’zallik va xunuklikni taqqoslash, mustaqil estetik fikrlar va baholarni shakllantirish;
- o’quvchi yoshlar orasida badiiy asar mutolaasini yo’lga qo’yish, badiyat bilan oshufta bo’lish, salbiy va ijobiy obrazlarni baholash didini shakllantirish;
- xalq og’zaki va yozma ijodi, o’tmish folklor va urf-odatlar asosida xalq estetik idealini aniqlash va zamonaviy shaxs ideali bilan uyg’unlashtirishni rejalashtirish, estetik e’tiqodlarini yanada rivojlantirishga yordam beradigan maxsus tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish;
- o’quvchi yoshlarda estetik tuyg’ularni rivojlantirish dastlab tabiatni kuzatishdan boshlashni, so’ngra badiiy asarlarni idrok etishga va o’zining badiiy ijod jarayoniga o’tishni ta’minlash zarur;
- milliy kuy-qo’shiq tovushlari, ramziy shakllar, muqaddas ranglarga bo’lgan hissiy munosabatlarni, ichki va tashqi go’zallikni qaror toptirish;
- o’quvchi yoshlar estetik madaniyatini tarbiyalash jarayonida, xususan, hayotiy va san’atning barcha sohalarida go’zallik va xunuklik, ulug’vorlik va tubanlik, kulgililik (hajviylik) va fojiviylik kabi mezonlarga hissiy tuyg’ularni va javobgarlikni ko’rsatish qobiliyati shakllanishi zarur;
- o’quvchi yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi yuksak estetik idrok va ideal asosida shakllangan bo’lsa, unda badiiy asarlarning badiiy fazilatlarini (*estetik zavq berishi yoki g’oyaviy buzishi kabi*) baholash qobiliyatiga ega bo’ladi, o’z milliy-etnik pozitsiyasidan turib baholaydi;
- o’quvchi yoshlarni xalq an’analariga chuqur qiziqishi va hurmat ko’rsatishi, zamonaviy san’atning asosiy yo’nalishlarini tushunish va tan olishi estetik tafakkurni shakllantirib etnoestetik munosabatlarni yuzaga chiqaradi;
- o’quvchi yoshlarning ijodiy salohiyatini dunyoning estetik manzarasini rivojlanishiga yo’naltirish, kasbiy-ijodiy jarayonlarda bevosita badiiy faoliyatda ishtirok etishlari, atrof-muhitga estetik munosabat ko’rsatib go’zallik qonuni nuqtai nazaridan uyg’unliknini ta’minlashlari bu etnoestetikadan ekoestetik madaniyatga o’tishni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, o’quvchi yoshlar estetik madaniyatini shakllantirib borish jarayonida uzuluksiz ta’lim tizimida estetik bilimlar bilan qurollantirish, badiiy asar mutolaasini yo’lga qo’yish, badiyat bilan oshufta bo’lish, hayotiy va san’atning barcha sohalarida go’zallik va xunuklik,

ulugʻvorlik va tubanlik, kulgililik (hajviylik) va fojiviylik kabi mezonlarga alohida eʼtibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. //Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. - Тошкент: «Ўзбекистан». НМИУ, 2016.
2. Абдуллаев М. Эстетическая культура. Теоретико-методологический аспект.-Т.:Фан, 1991.
3. Арзиматова И., Ибрагимова Ф. Шахс маданияти ва бадий-эстетик ўзгаришлар. Фарғона.Classic”2020.
4. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т., Назирова Г.М. Педагогика. Тошкент: 2013.
5. Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. -Тошкент:. Ўқитувчи, 1997.
6. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Тошкент: Шарқ, 2003.
7. Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). Тажрибавий қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2011.
8. Ҳамроқулова Б.М. Этнологияда этнопедагогиканинг ўрни хусусида. //“Академик Карим Шониезов ўқишлар” туркумида Ўзбекистон Этнологиясининг долзарб муаммолари: IV Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент-Наманган, 2007.
9. Ғайбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. – Тошкент: Chashma print, 2008.